



THE IMPACT OF LABOR MIGRATION ON CHANGES IN SOCIAL CONSCIOUSNESS

Shaymardon Omonovich Norov

Independent Researcher

ISFT Institute

Tashkent, O'zbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: migration, worldview, social consciousness, globalization, paradigm, identity, cultural adaptation, social integration, tolerance, thinking, social transformation.

Received: 19.02.26

Accepted: 20.02.26

Published: 21.02.26

Abstract: This article provides a socio-philosophical analysis of the intensification of migration processes in the context of globalization and their impact on the transformation of social consciousness. Migration is interpreted not only as a demographic and economic phenomenon but also as a significant factor in shaping new paradigms of social consciousness. The article reveals the substantive transformation of such concepts as identity, cultural adaptation, tolerance, transnational thinking, and social integration as a result of migration processes. Furthermore, the contradictions between migration and traditional forms of social consciousness are substantiated, along with the necessity of their reinterpretation in a new conceptual framework.

MEHNAT MIGRATSIYASINING IJTIMOYIY ONG O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI

Shaymardon Omonovich Norov

ISFT instituti mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: migratsiya, dunyoqarash, ijtimoiy ong, globallashuv, paradigma, identiklik, madaniy moslashuv, ijtimoiy integratsiya, tolerantlik, tafakkur, ijtimoiy transformatsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlarining jadallashuvi va ularning jamiyat ijtimoiy ongining transformatsiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Migratsiya nafaqat demografik va iqtisodiy hodisa, balki yangi ijtimoiy ong paradigmalarini shakllantiruvchi muhim omil

sifatida talqin qilingan. Ushbu maqolada migratsiya jarayonlari natijasida identiklik, madaniy moslashuv, tolerantlik, transmilliy tafakkur hamda ijtimoiy integratsiya kabi tushunchalarning mazmunan yangilanishi ochib berilgan. Shuningdek, migratsiyaning an'anaviy ijtimoiy ong shakllari bilan ziddiyati va ularni yangicha talqin qilish zarurati asoslab berilgan.

ВЛИЯНИЕ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ НА ИЗМЕНЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ

Шаймардан Омонвич Норов

Независимый исследователь Института ISFT

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: миграция, мировоззрение, социальное сознание, глобализация, парадигма, идентичность, культурная адаптация, социальная интеграция, толерантность, мышление, социальная трансформация.	Аннотация: В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется интенсификация миграционных процессов в условиях глобализации и их влияние на трансформацию социального сознания общества. Миграция рассматривается не только как демографическое и экономическое явление, но и как важный фактор формирования новых парадигм социального сознания. В статье раскрывается содержательное обновление таких понятий, как идентичность, культурная адаптация, толерантность, транснациональное мышление и социальная интеграция, возникающее в результате миграционных процессов. Также обосновывается противоречие миграции с традиционными формами социального сознания и необходимость их нового философского осмысления.
--	---

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi migratsiyani zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirdi. Aholining turli sabablarga ko'ra – iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida hududlararo va davlatlararo ko'chishi nafaqat makoniy harakatlanish, balki inson tafakkuri va ijtimoiy ongining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Shu ma'noda migratsiya zamonaviy ijtimoiy ong paradigmalarining shakllanishida muhim determinanta sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Migratsiya va yangi ijtimoiy ong paradigmalarining shakllanishining ijtimoiy-falsafiy jihatlariga oid qarashlar olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ushbu yo‘nalishda ko‘plab olimlarning asarlari migratsiya va yangi ijtimoiy ong paradigmalarining shakllanishi muhim o‘rin tutadi. Xususan, Stephen Castles, Mark J. Millerlarning “Migratsiya davri: Zamonaviy dunyoda xalqaro aholi harakatlari” asarida migratsiya va boshqa mamlakatda yashash tajribasi migrantlarning dastlabki niyatlarini o‘zgartirib, etnik xilma-xillikni shakllantiradi va bu ijtimoiy munosabatlar, davlat siyosati, milliy identiklik hamda xalqaro aloqalarga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liqligi ustuvor g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi migratsiyaning yangi ijtimoiy ong paradigmalarining shakllanishining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilish, bu jarayonlarning amaliy jihatlarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot metodlari sifatida dialektik metod asosida migratsiya va ijtimoiy ongni tahlil qilishda, tarixiylik metodidan ijtimoiy ong o‘zgarishi bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy jihatlar evolyutsiyasidagi vorisiylik va novatorlikni asoslash, tizimli yondashuv orqali migratsiya vositasida jamiyatda bo‘ladigan o‘zgarishlarning aks etishi tahlil qilingan.

Muhokama va natijalar. An’anaviy ijtimoiy ong shakllari asosan barqaror hudud, yagona madaniy muhit va nisbatan yopiq jamiyat sharoitida shakllangan bo‘lsa, bugungi migratsion jarayonlar ochiq, ko‘p madaniyatli va transmilliy ijtimoiy makonni yuzaga keltirmoqda. Bu esa ijtimoiy ongda identiklikning ko‘p qatlamli modeli, madaniy pluralizm, tolerantlik va moslashuvchan tafakkur kabi yangi paradigmalarining paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Migratsiya jarayonlari ta’sirida shakllanayotgan yangi ijtimoiy ong bir vaqtning o‘zida ham integrativ, ham ziddiyatli xarakter kasb etadi. Bir tomondan, u turli madaniyatlar va qadriyatlar o‘rtasida muloqot va o‘zaro boyish imkoniyatlarini kengaytirs, ikkinchi tomondan, an’anaviy ijtimoiy ong stereotiplari, ijtimoiy moslashuv muammolari va identiklik inqirozini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois migratsiya va ijtimoiy ong o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish zamonaviy ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

“Migratsiya tajribasi va boshqa mamlakatda yashash jarayoni ko‘pincha dastlabki rejalarning o‘zgarishiga olib keladi, natijada migrantlarning jo‘nab ketish paytidagi niyatlari ularning real xatti-harakatlarini oldindan aniq bashorat qilish imkonini bermaydi. Xuddi shuningdek, hech bir davlat immigratsiya orqali etnik jihatdan xilma-xil jamiyatni barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan bo‘lsa-da, mehnat resurslarini jalb etishga qaratilgan siyosatlar ko‘pincha etnik ozchiliklarning shakllanishiga olib keladi. Bu holat esa ijtimoiy munosabatlar, davlat siyosati, milliy identiklik va xalqaro munosabatlar sohalarida uzoq

muddatli va chuqur oqibatlarni yuzaga keltiradi” [1]. Shuning uchun migratsiya bilan bog‘liq jarayonlar individual qarorlar qabul qilishni va dunyoqarashda tashabbuskorlikdan ko‘ra moslashuvchanlikka intilish ham ustuvorlik qiladi.

“Migratsiya oqimining zamonaviy vektori kam rivojlangan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon yo‘nalgandir. Natijada migratsiya omili aynan rivojlangan davlatlarga kuchliroq ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mahalliy bo‘lmagan aholi ulushining yuqori darajada to‘planishi ushbu mamlakatlarda ijtimoiy munosabatlar, madaniyat, milliy identiklik va siyosiy jarayonlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda” [2]. Darhaqiqat, migratsiya oqimini aniq baholash aholining shart sharoitidan boshlab davlatning rivojigacha bo‘lgan parametrlarni aniqlash imkonin beradi.

“Aholining migratsiyasi tor ma‘noda turli aholi punktlari o‘rtasida amalga oshiriladigan, qaytmas harakatlar yig‘indisi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda “qaytmas” atamasi doimiy yashash joyini o‘zgartirish yoki “butunlay” ko‘chib o‘tish ma‘nosida ishlatiladi. Aholining migratsiyasi keng ma‘noda esa, turli usullar bilan qayd etilgan, turli aholi punktlari o‘rtasidagi qaytmas hamda vaqtinchalik (qisman) ko‘chib o‘tishlar yig‘indisi sifatida tushuniladi. Ushbu ta‘rifda ahamiyatli ajratuvchi belgilar sifatida ko‘chib o‘tish doimiy yashash joyini o‘zgartirish (“butunlay”) yoki vaqtinchalik bo‘lishi ko‘rsatib o‘tiladi [3]. Migratsiya jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga juda katta ta‘sir ko‘rsatib, shuning barobarida migratsiyaning asosiy turlaridan biri hisoblangan ayollar mehnat migratsiya jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatmoqda. Lekin, bu holat ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarga bog‘liq holda salbiy va ijobiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Mehnat migratsiyasi jarayonida turli-xil iqtisodiy-ijtimoiy, ba‘zan esa siyosiy muammolar ham uchrab turibdi, ayollar xorijiy mamlakatda mehnat migranti sifatida faoliyat yuritish jarayonida ko‘plab muammolarga duch kelmoqdalar, ularga nisbatan adolatsizlik yoki ma‘lum bir huquqlarining ta‘minlanmasligi mana shunday muammolarning mavjudligi mavzuning dolzarblik ahamiyatini tashkil etadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi bugungi globallashuv sharoitida yuz berayotgan migratsion jarayonlardan mustasno emas. So‘nggi yillarda mintaqada mehnat migratsiyasi bilan bir qatorda ilmiy va akademik mobillik, ta‘lim almashinuvlari hamda turizm oqimlarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlar davlatlar oldiga migratsiyani tizimli va samarali boshqarish vazifasini qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasida hududdan chiqib ketish va mamlakatga kirib kelish bilan bog‘liq migratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Davlat siyosati doirasida migratsiya jarayonlarini faqat nazorat qilish emas, balki ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omiliga aylantirishga intilish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Shu bilan birga, respublika mehnat migrantlari uchun xavfsiz va tartibli huquqiy muhit yaratish, ularning huquq va

manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston migratsiya masalalarini mintaqaviy hamkorlik kontekstida ko'rib chiqib, Markaziy Osiyo davlatlari bilan umumiy yondashuv va muvofiqlashtirilgan siyosatni shakllantirishga intilmoqda. Bu esa migratsion jarayonlarning barqarorligi, ularning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish hamda mintaqada uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, uzoq vaqt mobaynida migratsiya ayniqsa mehnat migratsiyasi faqat erkaklar misolida tushunilar edi, Bu fikrlar bugun ham bor, lekin o'tgan asrning oxirida ekspertlar, xalqaro va mintaqaviy darajalarda migratsiya oqimlarining globallasuvi feminizasyon ta'siri ostida, deb aytishardi. Shunday qilib, turli baholarga ko'ra, ayollar dunyoda migrantlarning umumiy sonining 40- 50 foizini tashkil qiladi.

Mehnat migratsiyasi – obektiv va iqtisodiy jihatdan asoslangan jarayondir. Migrantlar uchun esa bu boshqa mintaq, hatto davlatda ish topish imkoniyati demakdir [4]. Migrantlarni qabul qiluvchi mintaq yoki davlat iqtisodiyoti uchun bu jarayon mahalliy bozorda mehnat resurslari yo'qligi bois qo'shimcha mehnat resurslarini jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Biroq, mehnat migratsiyasi ijobiy samara berish bilan birga ko'plab muammolarni ham yuzaga keltiradi. Bu borada, birinchi navbatda, gap xalqaro mehnat migratsiyasi haqida bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni ham migratsiyaga nisbatan yangi ijtimoiy ong shakllanishining zaruriyatini ham asoslaydi. "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlarni yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga alohida tizimli e'tibor qaratilishi belgilangan" [5]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichi bugungi kunda xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tubdan yaxshilashga mustahkam zamin yaratmoqda. Ayniqsa, bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda aholining ish bilan bandligini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, ish bilan bandlik nafaqat aholi daromadlarini oshirish, balki ularning turmush darajasi va farovonligini yuksaltirish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning ham eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, migratsiya jarayonida turli xil iqtisodiy-ijtimoiy, ayrim hollarda esa siyosiy jarayonlar bilan ham hamohanglikda shakllanib bormoqda. Ayniqsa, ayollar xorijiy mamlakatlarda mehnat migranti sifatida faoliyat olib borish jarayonida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ularga

nisbatan adolatsizlik holatlari, shuningdek, ayrim huquqlarining yetarli darajada ta'minlanmasligi ushbu muammolarning dolzarbligini yanada oshirmoqda va mavzuning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. Globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlari jamiyat ijtimoiy ongining shakllanishi va transformatsiyasida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Migratsiya an'anaviy ravishda demografik va iqtisodiy jarayon sifatida talqin etilgan bo'lsa-da, zamonaviy sharoitda u ijtimoiy ong paradigmalarini yangilovchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Migratsiya jarayonlari ta'sirida shaxs va jamiyat tafakkurida identiklik, dunyoqarash hamda ijtimoiy moslashuv mexanizmlarining mazmunan yangilanishi yuz bermoqda. Migratsiya jarayonlari ijtimoiy ongda madaniy moslashuv, tolerantlik va transmilliy tafakkurning kuchayishiga zamin yaratadi. Bu holat, bir tomondan, jamiyatning ochiqligi va madaniy xilma-xilligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, an'anaviy ijtimoiy ong shakllari bilan muayyan ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu ziddiyatlar ijtimoiy ongni yangicha falsafiy yondashuvlar asosida qayta talqin qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarining ijtimoiy integratsiyaga ta'siri jamiyat barqarorligi va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi ijtimoiy ong paradigmalari shakllanishida migratsiyaning roli chuqur anglanishi, mazkur jarayonni boshqarishga oid samarali ijtimoiy va institutsional mexanizmlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, migratsiya va ijtimoiy ong o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni tadqiq etish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Stephen Castles and Mark J. Miller. The Age of Migration International Population Movements in the Modern World. London, 1998. – P. 19.
2. Юдина Т. Н. О социологическом анализе миграционных процессов // Социологические исследования. 2002. № 10. С. 102–109.
3. Рыбаковский Л.Л. История и теория миграции населения. Кн. 2: Миграция населения: явление, понятие, детерминанты. – М.: Изд-во «Экон- Информ», 2017. – С. 48.
4. Пооценкам ООН и МОТ (Labor migration // International migration policies. UN Dep. of econ. and social affairs. Population division. NY, UN. 1998. P. 87-172
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6868721>